

Tug'ruqdan keyingi qon ketishlarda ixtisoslashgan tibbiy yordam sifatini yaxshilash

Anvar Ibragimovich Kamalov
Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tug'ruqdan keyingi qon ketishlarda ixtisoslashgan tibbiy yordam sifatini yaxshilash to'g'risida ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: tug'ruq, qon ketish, tibbiy yordam

Improving the quality of specialized medical care for postpartum hemorrhage

Anvar Ibrahimovich Kamalov
Samarkand State Medical University

Abstract: This article provides information on improving the quality of specialized medical care for postpartum hemorrhage.

Keywords: childbirth, bleeding, medical care

Tug'ruqdan keyingi qon ketishlarda ixtisoslashgan tibbiy yordam sifatini yaxshilash uchun biz quyidagilarni inobatga oldik: tibbiy yordam ko'rsatish sifati, tibbiy yordam ko'rsatish bosqichlari va qon ketganda kechiktirilmay ko'rsatiladigan yordam (xronometraj). Tibbiy yordam strukturasi sifatiga, material-texnik baza, kadrlar potentsiali, muassasa finaslari, boshqaruv tizimi kiradi. Material- texnik baza va finaslari odatda kam nazoratda bo'ladi.

Har bir tibbiy muassasa o'z maqsadi, tuzilish ierarxiyasi, ta'sir qilish ob'ekti, nazorat kriteriyalariga ega bo'lishi kerak.

Biz ishlab chiqqan dastur tug'ruqdan keyingi qon ketganda tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yaxshilashga imkon beradi.

1-bosqich. Ko'rsatilgan tibbiy yordamni taxlil qilish. Buning uchun, ko'rsatilgan tibbiy yordamni taxlil qilish. Buning uchun, tug'ruqdan keyin ko'rsatilgan tibbiy yordam parametrlarini taxlil qilib, yordam ko'rsatilishi kerak bo'lgan faoliyat bilan ko'rsatilgan tibbiy yordam orasida tafovut bor yoki yo'qligini aniqlash lozim. Bunda biz ko'rsatilgan tibbiy yordamni alohida tibbiyot xodimi yoki guruh parametrlarida taqqoslashimiz kerak. Ushbu jarayonda quyidagi savollarga javob olishimiz kerak:

- Tug'ruqdan keyingi qon ketganda tibbiy muassasada qaysi muolajalar kim tomonidan bajarilishi lozim;

- Ko'rsatiladigan tibbiy yordamning sifati qanaqa;
- Tug'ruqdan keyingi qon ketganda tibbiy yordamga shart- sharoit bormi;
- Ushbu muassasada tug'ruqdan keyingi qon ketish qaysi chastotada uchrayapti va hk.

Tug'ruqdan keyingi qon ketganda ko'rsatiladigan tibbiy yordam O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ishlab chiqarilgan Milliy standartlar va protokollarga mos kelishi tekshirilishi va har bir tibbiyot xodimi ushbu qo'llanma bo'yicha kerakli bilim va saviyaga ega bo'lishi lozim.

2-bosqich. Asosiy sabablarni aniqlash.

- tug'ruqdan keyin qon ketishda tibbiy yordam ko'rsatilishidagi xato va kamchiliklarni aniqlab, taxlil qilish;
- qilinishi kerak bo'lgan muolajalarning o'z vaqtida bajarilmaslik sabablarini aniqlash;
- tug'ruqdan keyin qon ketishda tibbiy yordam ko'rsatilishidagi noto'g'ri xronometraj;
- qaytar muloqotning bo'lmasligi;
- tashkiliy masalalardagi yetishmovchilik;
- tibbiyot xodimlari malaka va ko'nikmalarining pastligi;
- noadekvat tibbiyot xonalari yoki kerakli jihozlarning bo'lmasligi;
- bemorga diqqat e'tiborning kamligi.

3-bosqich. Muolajani tanlash. Tug'ruqdan keyin qon ketishda tibbiy yordam ko'rsatish qadamlarini va xronometrajni milliy standartlar va protokollariga moslab ishlab chiqarish. Quyidagi mezonlarga tayanish kerak:

1. Mutanosiblik: biz xoxlagan natija olamizmi?;
2. Tug'ruqdan keyin qon ketishda tibbiy yordam ko'rsatish samarali bo'ladimi?;
3. Iqtisodiy jihati: Tug'ruqdan keyin qon ketishda tibbiy yordam ko'rsatish uchun hamma resurslar yetarli?;
4. Bajarilishi: ushbu amaliyotni bajarish uchun yetarli infrastruktura mavjudmi?;
5. Tug'ruqdan keyin qon ketishda tibbiy yordam ko'rsatish resurslari tanqis bo'lgan muassasalarda imkoni bormi?;
6. Maqbulligi: Tug'ruqdan keyin qon ketishda tibbiy yordam ko'rsatish amaliyoti ushbu muassasa xodimlariga maqbulligi;

4-bosqich. Tug'ruqdan keyin qon ketishda tibbiy yordam ko'rsatish amaliyotlarini o'tkazish. Ushbu bosqichni o'tkazish uchun o'tkaziladigan amaliyotlarni qadamma-qadam yoritib, tibbiyot xodimlarini o'rgatish lozim. Tibbiy yordam ko'rsatish sifatini yaxshilash va monitoringini o'tkazish.

5-bosqich. Tug'ruqdan keyin qon ketishda tibbiy yordam ko'rsatish monitoringini va tibbiy xizmat parametrlarini baholash.

Ushbu faoliyat uzluksiz bo'lishi lozim. Tug'ruqdan keyin qon ketishda tibbiy yordam ko'rsatishdagi amaliyotlarni baholashda boshqa muassasalar faoliyatini o'rganib, ular bilan solishtirish hamda eng maqbul tibbiy yordam ko'rsatishni muvofiqlashtirish lozim.

Tug'ruqdan keyingi qon ketishlarda ixtisoslashgan tibbiy yordam sifatini yaxshilashni yuqoridagi algoritmgaga qarab tashkil qilish biz xoxlagan natijalarni berishi mumkin. Ushbu dastur orqali treninglar o'tkazish ish joyida tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish va ish sifatini yaxshilashga imkon beradi. Ishning kutilgan va haqiqatdagi ko'rsatkichlari orasidagi tafovutlarini kamaytirishga ta'sirini baholash uchun ishning haqiqatdagi ko'rsatkichlarining rasmiy baholanishini kutilgan ko'rsatkichlar bilan uzluksiz ravishda taqqoslash lozim. Olingan ma'lumotni, agar kerak bo'lib qolganda, aralashuvni bajarish rejasini o'zgartirish uchun yaxshilab tahlil qilish biz kutgan natijani berishi mumkin. TKQKKni oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha muassasa va tibbiy xodimlarning bu bosqichlarga asoslangan faoliyatni yaxshilash jarayoni, bizga, qaysi omillar ishning kutilgan ko'rsatkichlariga o'z hissasini qo'shayotganligini va bu omillarni mustahkamlash uchun nima qilish mumkinligini ko'rishga yordam beradi. Bunday yondashuvni qo'llash, shuningdek, bilim olish jarayonini (malaka oshirish kurslari, ordinatura, magistratura) ish joyiga - ayollarga tug'ruq vaqtida bevosita xizmat ko'rsatiladigan joyga o'tkazishni ta'minlashga ko'maklashadi. Ish ko'rsatkichlarini va tibbiy xizmat sifatini yaxshilash maqsadida aralashuvlarni bajarish o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Tibbiy muassasada tibbiy yordam sifatini oshirish uchun yechimlarni ishlab chiqishning o'zi yetarli emas. Hattoki eng yaxshi g'oyalar ham muvaffaqiyatsizlikka duchor bo'lishi mumkin, chunki, taxmin qilinishicha, ularni hayotga tadbiq etuvchi odamlar o'zgarishlarga qarshilik ko'rsatishadi. Ish ko'rsatkichlari va xizmatlarni yaxshilash uchun, o'zgarishlar jarayonini qanday qilib boshqarilishini bilishimiz lozim. Bu barcha manfaatdor shaxslarning to'liq jalb etilishini talab etadi. Binobarin, mazkur yaxshilanishlarni haqiqatga aylantirish uchun yetakchilik jarayoni butun jamoaning vazifasi bo'lishi kerak. Bu jarayon qator bosqichlardan tashkil topgan bo'lib, ular ishning kutilgan ko'rsatkichlariga erishilgunicha takrorlanaveradi. Bunday bosqichlar ketma-ketligi yechimlarni izlash uchun ishning kutilgan va haqiqatdagi ko'rsatkichlari orasidagi har qanday tafovutlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Bunday tafovutlar TKQKKlarga qarshi kurashish, moddiy-texnika zahiralarini boshqarish, maslahat berish, bo'limdagi bemorlar soni, xodimlarning kech qolishi kabi klinik amaliyotda topilishi mumkin.

Buning uchun quyidagilar qilinishi zarur:

Ish jarayoniga barcha tibbiyot xodimlarini jalb etish va ularni jalb etgan holda ushlab qolish. Xodimlar, hududiy jamiyat aholisi, shuningdek, turli darajadagi sog'liqni saqlash tizimining vakillari manfaatdor shaxslar bo'lishi mumkin. Tibbiy

yordamning yuqori darajadagi sifatiga manfaatdor bo'lgan shaxslar ichida hududiy jamiyat eng katta ulushga ega. Tibbiy muassasalar ko'rsatadigan xizmatlar ish ko'rsatkichlarini va xizmatlar sifatini yaxshilash jarayoniga avval boshdan hududiy jamiyat jalb etilganda samaraliroq bo'ladi. Ish ko'rsatkichlarini yaxshilash jarayonini amalga oshirish ishida birinchi bosqich bo'lib, bu jarayonning manfaatdor shaxslar tomonidan qo'llanilishiga roziliklarini olish va keyin ularni tibbiy muassasada ko'rsatilayotgan xizmatlar haqida xabardor qilish hisoblanadi.

Ishning kutilgan ko'rsatkichlarini aniqlash. Xodimlar yaxshi ishlashlari uchun, ulardan nima kutilayotganligini bilishlari lozim. Ish ko'rsatkichlarining standartlari mavjud bo'lishi zarur. Xodim nafaqat o'zining xizmat vazifalarini bilishi, balki xizmat vazifalarini qanday bajarishi lozimligini bilishi lozim. Ishning kutilgan ko'rsatkichlari haqiqatga yaqin bo'lishi hamda mazkur tibbiy muassasa zahiralari hisobga olinishi lozim (masalan, xodimlar soni, tayyorlanganlik darajasi, byudjet, asbob-anjomlar, transport, sarflov materiallari). Ishning kutilgan ko'rsatkichlari manfaatdor shaxslarning umumiy maqsadlariga, shu jumladan hududiy jamiyatning istalgan natijalariga asoslanishi lozim.

Ishning haqiqatdagi ko'rsatkichlarini tavsiflash. Rahbarlar xodimlarning va muassasaning, ulardan kutilganiga qaraganda, qanday ishlayotganligini uzluksiz ravishda baholashlari lozim. Bunday baholash uzluksiz, norasmiy asosda o'tkazilishi mumkin yoki uni davriy ravishda va rasmiy ravishda o'tkazish mumkin. Ish ko'rsatkichlarini baholash usullari o'ziga baho berish hamda mijozlardan qayta aloqani qabul qilish va/yoki xodimlar tomonidan kuzatishni o'zida mujassam etadi.

Ishning kutiladigan va haqiqatdagi ko'rsatkichlari orasidagi tafovutlarning sabablarini topish. Ishning kutiladigan va haqiqatdagi ko'rsatkichlari orasidagi tafovutlar rahbar va xodim o'zlarining bajarayotgan ishlari ish ko'rsatkichlarining belgilangan standartlariga muvofiq kelmayotganligini aniqlaganda mavjud bo'ladi. Agar bunday tafovutlar topilsa, rahbar, xodim bilan birgalikda, bu tafovutlar nima uchun mavjudligini sinchiklab o'rganishi lozim. Ishning kutiladigan ko'rsatkichlariga ega bo'lishga nima xalaqit berayapti? Ba'zan ishning ko'rsatkichlari yomon bo'lishining sabablari yaqqol namoyon bo'lmaydi - haqiqatdagi sabablarni aniqlash uchun ma'lum bir vaqtni sarflash talab etiladi.

Bosqichlarni tanlash va ish ko'rsatkichlarini bosqichma-bosqich yaxshilashni amalga oshirish. Ishning kutiladigan va haqiqatdagi ko'rsatkichlari orasidagi tafovutlarning sabablari aniqlangan vaqtdan boshlab, rahbar xodimlar bilan birgalikda ish ko'rsatkichlarini bosqichma-bosqich yaxshilashni amalga oshirishi lozim. Xodimlarning bilim va ko'nikmalarini yaxshilash bosqichlari rejalashtirilishi mumkin. Muhitni yaxshilash usullari yoki qo'llab-quvvatlovchi tizimlar mavjud bo'lishi mumkin, bu xodimning ishi yaxshilanishiga imkon beradi. Xodim ishining ko'rsatkichlarini yaxshilashning ko'pgina turli usullari mavjud. Ulardan shunday

usullarni tanlash kerakki, qaysikim mazkur muassasa zahiralarga muvofiq kelsin. Monitoring o'tkazish va ish ko'rsatkichlarini baholash. Aralashuvlar amalga oshirilgandan keyin ish ko'rsatkichlari yaxshilanganligini aniqlash juda muhim. Agar yaxshilanish kuzatilmasa - jamoa orqaga qaytishi va ishning kutiladigan ko'rsatkichlariga erishish uchun nima xalaqit berayotganligini yana bir marotaba o'ylab ko'rishi lozim. Aralashuvlar ishning kutiladigan va haqiqatdagi ko'rsatkichlari orasidagi tafovutlarni keltirib chiqaruvchi haqiqiy sabablariga yo'naltirilishi muhim. Agar ishning ko'rsatkichlari yaxshilangan bo'lsa, rahbar monitoringni davom ettirishi hamda ish ko'rsatkichlarining kutiladigan darajasi saqlanayotganiga ishonch hosil qilishi muhim. TKQKnini oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha olib borilayotgan ishlar monitoringi hamda ish ko'rsatkichlarini baholash. Garchi aralashuvning umumiy ta'sirini baholash muhim bo'lsa-da, ko'pgina tizimlarda bu maqsad uchun tashqi boshqaruv mexanizmi mavjud. Biroq amalga oshirilayotgan aralashuvlarning ta'sir ko'rsatishi va bajarilishining doimiy monitoringi uchun bevosita muassasada ishlayotgan rahbar javob beradi. Aksincha, aralashuvlarni bajarish tibbiy muassasa ish ko'rsatkichlari qanday bo'lsa, shunday qaytariluvchi aloqaga ega bo'ladi. Bu muhim bosqich - monitoringni bajarish vositasida ro'y beradi. Monitoring - bu juda tabiiy jarayon. Monitoring - bu quyidagilarni amalga oshirish maqsadida tashkilot, xodim yoki muayyan aralashuv ish ko'rsatkichlarini o'lchash uchun baholash usullarini qo'llashdir: rejaga asosan ishlayotgan hamda oraliq tuzatishlar talab etiladigan jihatlarni belgilash vositasida yaxshilash yoki o'zgartirishini amalga oshirish; ish ko'rsatkichlarining belgilangan standartlar yo'nalishiga qarab oldinga siljishini kuzatish. Oddiy so'z bilan aytganda, monitoring - bu erishmoqchi bo'lgan o'zgarishlar amalga oshganligini aniqlashtirish jarayonidir.

Ba'zi xodimlarni boshqa xodimlar tomonidan baholanishini amalga oshirish;

Bemorlarning fikrini bilish;

Hududiy jamiyat fikrini so'rab chiqish;

Yozuv va hisobotlarni tekshirish;

"Namuna" bilan taqqoslash

Ish ko'rsatkichlari va sifatini yaxshilash jarayonining diagrammasi shuni ko'rsatadiki, monitoring va baholash bu jarayonning bir necha bosqichlarida qayta birlashadi. Hattoki, muammolarning kuchli tomonlari va asosiy sabablarini aniqlash uchun jamoa bilan ishlash ish ko'rsatkichlariga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mana shuning uchun yuqorida sanab o'tilgan usullarning birikmasidan foydalanib, baholashning uzluksiz jarayoni tashkil etilishi lozim. Agar tibbiy muassasasida ish ko'rsatkichlari va sifatini uzluksiz ravishda baholanmasa, hech qachon vaziyat yaxshilanayaptimi - yo'qmi va uni yaxshilanishiga nima ta'sir ko'rsatayotganligini bila olmaymiz.

Shunday qilib, tug'ruqdan keyingi qon ketishlarda ixtisoslashgan tibbiy yordam sifatini yaxshilash dasturi tibbiy muassasa o'tkazayotgan aniq bir choralar monitoringining amaliy vositasi bo'lishi mumkin.

Tug'ruqdan keyingi qon ketganda ixtisoslashgan tibbiy yordam ko'rsatishni yaxshilash dasturi asosida biz "Tug'rudan keyingi qon ketishlarni olib borishda xizmat ko'rsatish sifatini baholash" nomli Elektron hisoblash mashinalari uchun dastur ishlab chiqdik.

Davolash muassasalarida TKQK ning profilaktikasi va davosi uchun standart bayonnomalarini qo'llash tavsiya etiladi. Bunda ayollarni yuqoriroq darajadagi muassasalarga o'tkazish bo'yicha standart bayonnomalar bo'lishi zarur. Barcha tug'ruq muassasalarida tibbiy xodimlarning barcha shtatlari uchun mo'ljallangan ta'lim dasturlari doirasida TKQK ni davolash bo'yicha simulyatsion treninglarni davriy ravishda o'tkazish tavsiya etiladi.

TKQKning isbotli ravishda asoslangan profilaktikasi va davosi nisbatan arzon vositalar yordamida muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirilishi mumkin. Ammo ushbu dasturda keltirilgan tavsiyalarni qo'llashdan avval quyidagi jihatlarni hisobga olish lozim:

Bola va yo'ldosh tug'ilganidan so'ng dastlabki bir necha soat mobaynida ayol tibbiy xodimlarning doimiy kuzatuvi ostida bo'lishi lozim.

Oksitotsin qo'llanilganda zanjirning uzluksizligini nazorat qilish lozim (ya'ni tug'ruq zalida haroratni nazorat qilish bo'yicha talablarning bajarilishi ustidan).

Maqolamizda xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, mazkur dasturning tadbiq etilishi sog'liqni saqlash tizimi darajasida nazorat qilinishi lozim. TKQK da qo'llaniladigan davolash usullariga taalluqli bo'lgan muhim ma'lumotlarni olish uchun ma'lum bir tamoyillarga asoslangan uzilgan vaqtinchalik qatorlar yoki audit usuli bo'yicha klinik auditni o'tkazish mumkin. Mahalliy darajada tasdiqlangan maqsadli parametrlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan ma'lum bir mezonlar va ko'rsatkichlardan foydalanish zarur. TKQK ning profilaktikasi va davosi bilan bog'liq tibbiy yordam sifatini to'liqroq baholash uchun mahalliy darajada tasdiqlangan boshqa ixtisoslashgan indikatorlarni qo'llashni talab etishi mumkin.

Tibbiy yordam sifati boshqarilishining baholanmasligi tug'ruq muassasalarida ishning sifatini ta'minlash va tashkil etish rolini yetarli darajada tushunib yetmaslikdan dalolat beradi. Bunda O'zbekiston Respublikasida akusherlik amaliyotida dalillarga asoslangan tibbiyot ma'lumotlari qo'llaniladi, bemorning ehtiyojini, shuningdek, tibbiy xodimning doimiy ravishda kasbiy ta'limini takomillashtirish bilan birga bilimni hisobga olish zaruriyati haqida aytiladi. Bizning ma'lumotimiz bo'yicha, tug'ruqxona ishini ijobiy baholovchi homilador ayollar soni faqatgina 59% ni, tuqqan ayollar soni esa 62,2%ni tashkil etdi. Ma'lumki, bemorlarning qanoat hosil qilishi sifatli yordamning yetakchi mezoni bo'lib hisoblanadi. Bemorlar va ularning

qarindoshlari tomonidan shikoyatlarning katta qismi salomatlikka zarar yetkazilgan harakatlar bilan bog'liq.

Foydalangan adabiyotlar

1. Alimjanovich, J.R., Agababayan, L.R. and Kamalov, A.I., 2021. Prevention and Treatment of Postpartum Hemorrhage. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 2(4), pp.204-209.

2. Rizayev, J.A., Agababayan, L.R. and Kamalov, A.I., 2021. AYOLLARDA TUG 'RUQDAN KEYINGI QON KETISHLARNI OLDINI OLISH VA ULARGA QARSHI KURASHISH BO 'YICHA KO 'RSATILAYOTGAN XIZMATLAR SIFATINING MONITORINGINI TASHKIL ETISH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), pp.166-178.

3. Rubenovna, A.L. and Ibragimovich, K.A., 2021. The efficacy of different methods of haemostasis for postpartum haemorrhage. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, pp.134-139.

4. Rubenovna, A.L., Boltaevich, N.B., Erkinovna, M.S. and Xamzaevich, X.X., 2021. Preeclampsia—a modern view to the problem, methods of prognosis and early diagnosis based on clinico-genetic predictors. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 25(1), pp.192-202.

5. КАМАЛОВ, А.И. and АГАБАБЯН, Л.Р., 2022. ТУҒРУҚДАН КЕЙИН МАССИВ ҚОН КЕТИШ ПРОФИЛАКТИКАСИНИНГ ТИББИЙ ЖИҲАТЛАРИ. ЖУРНАЛ БИОМЕДИЦИНЫ И ПРАКТИКИ, 7(1).

6. Abdullayeva, L., Kamalov, A. and Agababayan, L., PREVENTION OF POSTPARTUM BLEEDING IN WOMEN WITH OVERSIZED UTERUS. Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation, 32, p.2.

7. Махмудова, А.Н., Ибрагимова, Э.Ф., Шукурова, Д.Б., Абдурахмонова, З.Э. and Наимова, З.С., 2020. Медицина Узбекистана-достижения и перспективы развития сферы. Достижения науки и образования, (3 (57)), pp.49-52.

8. Махмудова, А.Н. and Махмудова, С., 2022. Гуманитаризация медицинского образования как фактор повышения качества обучения в вузе. Science and Education, 3(6), pp.709-718.

9. Махмудова, А.Н., 2022. Правовая защита пациентов в сфере здравоохранения в новом Узбекистане. Academic research in educational sciences, (Conference), pp.102-107.

10. Махмудова, А.Н., Афанасьева, О.Г. and Камариддинзода, А.К., 2022. ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МИРОВОЗРЕНИЯ И ЦЕННОСТЕЙ У СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКОГО ВУЗА. ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ, (SI-2).

11. Nugmanovna, M.A. and Kamariddinovna, K.A., 2021, January. Modern biotechnical problems of medicine and their solutions. In Archive of Conferences (Vol. 13, No. 1, pp. 169-173).

12. Nugmanovna, M.A., 2022. BIOETHICS AS A FORM OF PROTECTION OF INDIVIDUALITY AND PERSONALIZED MEDICINE. Thematics Journal of Social Sciences, 8(4).

13. Nugmanovna, M.A., 2022. BIOETIKA ZAMONAVIY MADANIYATDA INDIVIDUALLIKNI HIMOYA QILISH SHAKLI SIFATIDA. ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ, (SI-2).